

201  
A  
Alisher Navoiy  
semidagi  
O'zbekiston MK

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:5 (67170)  
2018-yil 29-yanvar

# Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



## VATANGA MUHABBAT - YUKSAK SHARAFGA MUNOSIB



Samarqand shahridagi Birinchi Prezidentimiz tahsil olgan 21-umumta'lim maktabida Islom Karimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

2-bet

**USHBU SONDA:**  
**SOCHINGIZ SAVDOSI BOSHINGA TUSHDI...**

3-bet



**KIMDA QANDAY TAKLIF BOR?**

4-bet

**BOLALIKNING RANGIN JILVALARI**



8-bet

Tinchlik va xotirjamlik ikki ulug' ne'matdir.

Imom al-BUXORIY

2017-yilning 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori qabul qilingan edi.



Shu kunlarda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tavalludining 80 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli adib va olimlar, turli soha mutaxassislari ishti-

rokidagi uchrashuvlar, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Islom Karimovning ona Vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz ravnaqi yo'lidagi ulkan tarixiy xizmatlari yana bir bor hurmat-ehtirom, faxr-u iftixor bilan tilga olinmoqda. Zotan ezgulik, fidoyilik, xalqqa,

## VATANGA MUHABBAT - YUKSAK SHARAFGA MUNOSIB

millatga bo'lgan muhabbat ana shunday sharafta munosibdir.

Islom Abdug'aniyevichning ustozlari, keksa pedagog Halim Abdurahmonov 1955-yil-

lik qildim. Ammo shu yillar ichida Islom Karimovdek zukko, aqlli, ilmga chanqoq, do'stlarining mehr-muhabbatini qozongan boshqa o'quvchini uchrata olmadim. Islom Karimovga 10-sinfni bitiruv kechasida oltin medal topshirishim hayotimning eng saodatli daqiqalaridir.

Ayni kunlarda ushbu sana munosabati bilan Samarqand shahridagi Birinchi Prezidentimiz o'qigan 21-umumta'lim maktabida ham ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda. O'quvchilar ustozlari bilan Prezidentimiz yashagan uyga tashrif buyurishdi. Davlat arbobini tanigan va yaxshi bilgan insonlar, faollar, professor va oqsoqollar bilan uchrashuvlarda butun umrini xalqiga bag'ishlagan insonning ibratini yo'li yana bir bor yodga olindi. Bolalar Islom bobomiz haykali poyida

ta'zim bajo aylashdi.

– Birinchi Prezidentimiz asarlari bizga ma'naviy meros bo'lib qoldi,– deydi 9-sinf o'quvchisi Farangiz Orzimurodova. – Islom bobomizning kitoblarini qunt bilan o'rganishimiz kerak. Zero, u kishi bizlarni bilimli, kuchli, dono va albatta, baxtli bo'lishimizni istaganlar.

– «Islom Karimov asarlari bilimdoni» hamda «Birinchi Prezidentimiz – Mustaqilligimiz me'mori» mavzusidagi insholar tanlovida faol qatnashdik, – deydi tanlov g'olibi 9-«G» sinf o'quvchisi Mohinabonu Sattorova. – Dugonam 9-«V» sinf o'quvchisi Kamola Ahadova ham bilimlar sinovida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Ozodlik, erkinlik, tinchlik, farovonlik, osuda hayotimizga tamal toshini qo'ygan bu buyuk shaxsning umr yo'li kelajak avlod uchun katta ibrat maktabi bo'lishi, shubhasiz.

Nodira NAZAROVA

## XOTIRANGIZ QALBLARDA MANGU

Juma – ma'naviyat kunida maktabimizda davra suhbatlari, taniqli olim va shoirlar bilan uchrashuvlar, turli ko'rik-tanlovlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Yaqinda Birinchi Prezidentimiz, Mustaqil davlatimiz asoschisi Islom Karimovning 80 yilligiga atab «Xotirangiz qalblarda mangu» tadbirini tashkillashtirdik. Kechada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, shoirlar – Iskandar Rahmon, Azim Suyun, Axtamquli ishtirok etib, bobomizning amalga oshirgan buniyodkorlik ishlari haqida to'xtalib o'tishdi. Ijodkorlarimizning Islom Karimov haqidagi xotiralari, o'qigan she'rlari farzandlarimiz qalbiga ezgulik, sadoqat



tuyg'ularini jo etdi, – deydi Yunusobod tumani hokimiyati targ'ibot markazi rahbari Alisher Mahkamov. – Ayniqsa, «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asar bo'yicha yozilgan insholar, chizilgan suratlar, maktabda tashkil etilgan ko'rgazmalar barchaga birdek manzur bo'ldi.

– Bu maktabdan doim hayratlar olib ketamiz, – deydi shoir Axtamquli. – Bolalarning chaqnaq turgan ko'zlari, kitob va she'riyatga bo'lgan muhabbatidan quvonamiz. Ularning Birinchi Prezidentimiz faoliyatiga doir fikrlarini tinglab, dunyoqarashlari kengligiga ishonch hosil qildik.

Ulug' insonlarning qadami yetgan muqaddas dargoh – maktabimizda doim inson ulug', xotira muqaddas.

Mahmuda VALIYEVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

## QULOG'IMDA JARANGLAYDI SO'ZINGIZ

Vatan bizning kamolga yetishimiz, barkamol avlod bo'lib ulg'ayishimiz uchun borini ayamaydi.

Tug'ilib o'sgan Vatani uchun, xalqi uchun xizmat qilgan va so'nggi nafasigacha yurt kelajagini o'ylab yashagan inson Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovdir. Bu inson butun hayoti davomida ona yurt ravnaqi, yosh avlodning porloq kelajagini o'yladi. Islom Karimov nomi nafaqat xalq qalbidagi, balki O'zbekiston tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Tarixdagi yo'lchi yulduz o'zingiz, Yurtbosh bo'lib xalqqa ota bo'ldingiz. Qulog'imda jaranglaydi so'zingiz, Xotiramda mangu siymo qoldingiz.

Gavhar HAMIDULLAYEVA, Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## «BARKAMOL AVLOD»DA UCHRASHUV

Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani «Barkamol avlod» bolalar markazining faollar zali bugun o'quvchi-yu ota-onalar, mahalla faollari va o'qituvchilar bilan gavgjum.

Bu yerga yig'ilganlar Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, ular amalga oshirgan ishlar va odil siyosati haqida suhbat qurish uchun yig'ilishgan.

Markaz direktori O.Obidov Birinchi Prezidentimizni xotirlar ekan, u kishi yozib qoldirgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari haqida alohida to'xtalib o'tdi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi X. Nabiyeva va tuman

ARM rahbari Muyassar Nunayevlar bobomizning ezgu amallari xususida so'z yuritishdi. O'quvchilar tomonidan she'riy monologlar, marsiyalar aytili. Davra suhbatidan so'ng o'quvchilar Birinchi Prezidentimiz har birimizning jamiyat uchun qo'shayotgan hissamizda, ona Vatan ravnaqi yo'lidagi izlanishlarimizda, tinchlik, farovonlik uchun



Tumandagi 5-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilari Go'zal Ro'ziqulova va Malika Bahromova tadbirda faol ishtirok etishdi.

amalga oshirayotgan ezgu amallarimizda yashayotganini yana bir bor his qildilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA

## KICHIK JUSSADAGI KATTA JASORAT

**Mening qalam tebratishimga sababchi bo'lgan kichik jasorat egasi maktabimizning 5-«B» sinf o'quvchisi Muxlisaxon Qosimovadir. Uning qilgan ishi maktabga o'z vaqtida borishni istamaydigan ba'zi o'quvchilarga o'rnak bo'lsa, ajabmas.**

Bir kuni yo'l-yo'lakay maktab hovlisida aravacha yetaklab ketayotgan qizchaga ko'zim tushdi, Qahramonimiz ertalabki sovuq havoga qaramay, kichik jussasi bilan 2-sinfda tahsil oladigan ukasini aravachada maktabga olib kelgandi. Surishtirsam, yaqinda ukasining oyog'i lat yegani, shu bois, shifokorlar unga kamroq harakatlanishni tayinlagan ekan. Qizchaga achinib, «Ota-onang olib kelsa bo'lmaydimi?» desam, ular davlat ishi bilan band ekanligini, ukasi darslardan qolib ketmasligi kerakligini aytdi.

Aziz o'quvchilar! Bu voqeadan xulosa chiqarishingizni va taningiz sog', aqlingiz raso ekanidan quvonib, bilim olishga intilib yashashingizni tilardim.

**Marg'ubaxon MULLAJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi  
32-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

## EPCHILLIKKA CHORLAGAN DARS

**Yaqinda sinfimizda o'qish fanidan «Kitobga ixlos» deb nomlangan ochiq dars o'tkazildi. Tadbirda ustozlar, Yoshlar ittifoqi vakillari hamda ot-onalar qatnashdi.**



Ochiq darsda guruhlarga bo'linib musobaqalar uyushtirdik. O'qituvchimiz Sanobar opa Quryozova multimediyali ilovalardan foydalanib, barchamizda katta taassurot uyg'otdilar. Ushbu kecha bizlarni darslarda yana ham ziyrak va epchil bo'lishga chorladi.

**Feruz OLLANAZAROVA,**  
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim  
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

## FAQAT YIGITLAR O'QISIN

# SOCHINGIZ

# SAVDOSI BOSHIMGA

# TUSHDI...

**Juma kuni ilk darsimiz ma'naviyat soati edi. Bir payt maktab ma'muriyati, profilaktika ishlari noziri va yoshlar yetakchisi birgalikda sinfimizga kirib keldi.**

Tartib-qoidaga rioya qilish, davomat masalalari ko'rib chiqilgach, «zamonaviy» sinfdoshlarimizdan o'nga yaqini tanbeh eshitdi. Bu holat birinchi bor takrorlanishi emasdi. Doimiy tanbeh eshitib yuradiganlardan biri o'rnidan turdi-yu, savol bilan murojaat qildi:

– Kechirasiz, ta'lim olishimizga sochimizning nima aloqasi bor?

Javobni maktabning ma'naviyat ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari berdi:

– Mamlakatimizda nafaqat ta'lim, balki tarbiya ham umumlashtirilib olib boriladi, demak, har bir o'quvchining tashqi ko'rinishi maktab

odob-axloq qoidalariga mos bo'lishi zarur. O'quvchi milliy qadriyatlarimiz doirasidan chiqib ketmasligi, «ommaviy madaniyat» ta'siriga tushib qolmasligi kerak. Biz o'z tashqi ko'rinishimiz bilan ichki olamimizni ko'rsatib beramiz. Shunday ekan, barcha o'quvchilar belgilangan tartib bo'yicha o'zini risolaga solsin.

So'zlar ta'sir qildi, shekilli, ertasi kuni darsga barcha o'g'il bolalar sochlarini tartibga solib kelishdi.

Bugun shahar ko'chalarida yurgan ayrim yigitlarni kuzatar ekanmiz, ularning ajnabiy usulda turmashgan sochlariga qarab, hayron qolasan, kishi. Tengdoshlarimiz o'zlariga namuna qilib olayotgan

insonlar aslida kimlar ekanligi bilan hech qiziqishyaptimi? Axir sochlarni «san'at asari»ga aylantirayotgan sartaroshlar bu hol milliyligimizga mos kelmasligini ta'kidlasa bo'ladi-ku. Ammo shunday yigitlar ham borki, ular qaysarlik bilan o'zlarini shu ko'ygga solishadi.

Bugun telekanallarimizni ko'proq chet el filmlari egallab olgandek. Ulardagi



yosh qahramonlarga e'tibor bersak, kokilli yigitlar, qimmatbaho kiyingan erkatoylarni ko'rishimiz mumkin. Tabiiyki, ularni o'smir yoshidagi aksariyat yigit-qizlar ideal inson sifatida qabul qiladi. Natija esa bugungi kunda uchrayotgan «modniy» sochlar, ajnabiy kiyimlarda namoyon bo'lmoqda.

Yoshlar ta'biri bilan aytganda, agar «haqiqiy yigit»lar shunday bo'lsa, nima uchun Abdulla Qodiriy Otabekni shunday sochlari uzun qilib tasvirlamadi? Demak, o'zbek yigitlari uchun qizlar kabi sochga oro berish, uzun kokillar o'stirish haddan ziyod ma'nisiz holdir.

Meni ma'zur tutasiz, bugun ba'zi yigitlarning sochlari uzaygani sari aqli kamayib borayotganga o'xshaydi. Masala negizi, yana aylanib oilaga borib taqaladi. Nahotki, ota-onalar, ayniqsa, muhtaram otalar farzandlarining tashqi ko'rinishiga loqayd qaramoqda. Dadamning aytishicha, kasbdoshlaridan birining o'g'li maktab qoidalariga zid ravishda soch o'stirgani uchun otasining oylik maoshidan jarama sifatida pul ushlab qolinibdi. Bir oy mehnat qilib topilgan mablag'ning oila uchun foydali narsaga sarf etilmagani otani achchiqlantiradi, albatta. Bu holni ertaroq oldi olinganda, turli dilxiraliklar kelib chiqmas edi.

Aziz tengdoshim, ushbu mavzu bo'yicha siz nima deysiz?

**Otabek BAKIROV,**  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi  
27-umumta'lim maktabining 10-sinf  
o'quvchisi

## Kuni kecha poytaxtimizdagi «Turkiston» san'at saroyida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Sardorlar kengashi tomonidan

# «YAXSHILIKLAR ITTIFOQI»

loyihasi bag'ishlangan konsert dasturi tashkil etildi.

Kechada talaba-o'quvchilar hamda Toshkent yoshlar teatri aktyorlari o'z chiqishlarini yig'ilganlarga namoyish qildi. Konsertdan oldin imkoniyati cheklangan bolalarning chizgan suratlarini ko'rgazmasi va sardorlar ishtirokida «Fleshmobe» ommaga taqdim etildi.

Dastur so'ngida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi raisi



Elbek Shukurov so'zga chiqdi. Shundan keyin «Yaxshiliklar ittifoqi» madhiyasi kechaga yakun yasadi.

Azizlar, mana ko'rdingizmi, Yoshlar ittifoqi orzu-umidlarimiz kaliti ekan.

**Sevarbek ELBOYEV,**  
poytaxtimizning Yakkasaroy  
tumanidagi 118-umumta'lim  
maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

**Yaxshi odamni hech qachon qo'l bilan ko'rsatib bo'lmaydi. Balki yaxshini ko'rganda yoki u bilan yuzma-yuz kelganda, qo'llar ko'ksimizda kutib olinadi. Uni hayotda qilib kelayotgan yaxshiliklari, mehribonligi, yaxshi amallari tufayli ko'pchilik biladi, hurmat qiladi, e'zozlaydi va bunday odamdan o'rnak olishga intiladi.**



## YAXSHILIK FARZANDI

Ana shunday samimiy, yaxshi va mehribon insonlardan biri Vasila opa Po'latova bo'ladi. U kishini barcha bolalar nashrlarining jonkuyar do'sti, mehribon onaxon, deb e'zozlashadi. Vasila opa salkam qirq yil «Gulxan» jurnalida samarali mehnat qildi. Uzoq yillar jurnalning xatlar va ommaviy ishlar bo'limini boshqardi. Opa ishlagan yillarini hamon mehr bilan xotirlaydi:

– O'sha davrlarda barcha bolalar nashrlari qatori «Gulxan»ga ham dasta-dasta xat oqib kelardi. Ro'yxatga olib ulgurmasdik. Bu xatlarni birma-bir qaychilab ochgunchimizcha barmoqlarimiz qavarib ketardi. Aslida, xatlar bo'limini jurnalning yuragi, desak bo'ladi. Hozir nomlari chiqqan ko'pgina ijodkorlarning ilk mashqlari xatlar bo'limi orqali chop etilganidan xursand bo'lib yuraman. Abdulla Oripov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Safar Barnoyev, To'liq Qozoqboyev, Oydin Hojiyeva, Omon Matjon singari mashhur ijodkorlar bilan jurnalda birga ishlagan yillarimni umrimning bebaho lahzalari deb bilaman va bundan hamisha Yaratganga shukronalar aytib, faxrlanib yuraman...

Vasila opa hayotdan, odamlardan faqat yaxshilik izlab, o'rganib, o'zi ham beminnat yaxshiliklar qilib kelayotgan oqila insonlardan biri. Ayrimlar borki, qilgan yaxshiligini minnat qilib, gapirib yuradi, kichik yaxshiligini tog'dek qilib ko'rsatadi.

Atrofdagilarga, hamkasblariga mehr ko'rsatish, yaxshilik qilish, ularning holidan doimo xabardor

bo'lib borish opamizning hayot tarziga singib ketgan. Go'yo bu ezgu ishlar u kishining kundalik mashg'ulotiga aylangan. «Yaxshilik qil, daryoga tashla, Xoliq bilar, Xoliq bilmasa baliq bilar» maqoliga amal qilib yashaydi. Shu bois, odam tanlamasdan mehribonlik ko'rsatib, yaxshilik qilib ketaverdi. Ba'zan yaxshilikni bilmaydigan tosh yurak kimsalar ham uchrab turadi. Lekin opa bundaylardan aslo ranjimaydi.

Kamina ham «Gulxan» jurnalida ishlagan kezarimda, Vasila opaning samimiy yaxshiliklaridan ko'p bahramand bo'lganman. Va bu beminnat yaxshiliklarini hamon shukronalik bilan eslab yuraman. Shunday bag'rikeng, samimiy, mehridaryo inson bilan birga ishlaganimdan benihoya xursandman. Vasila opa Po'latovani chin ma'nodagi yaxshilik farzandi, deb bilaman...

U kishi yaxshi maqolalar yozish bilan birga, bolalar uchun kitoblar ham tarjima qilganlar. Lekin bu mo'tabar insonning odamlarga qilgan yaxshiliklari va mehribonliklarini jamlasak, jild-jild kitoblarga sig'masa kerak, deb o'ylayman.

### Hurmatli Vasila opa!

**Go'zal umringizning yetmishinchi dovoniga xirmon to'la yaxshiliklar bilan yetib kelganingiz muborak bo'lsin! Odamlarga yaxshilik sirlarini o'rgatib, yaxshilik taftini ulashib yuravering.**

Ashurali JO'RAYEV

## O'SH VAQTIMIZNI BEKOR O'TKAZMAYMIZ

**Tahririyatimizga ustoz bilan kirib kelgan to'rt nafar ijodkor qiz bilan suhbatlashib, vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolibmiz.**

– Men 5-sinfimdan buyon she'r maqolalar yozaman. Maktabimizdagi barcha tadbirlarda o'z ijod namunalarim bilan ishtirok etaman. Bo'sh vaqtlarimda chet tillarini o'rganaman. Vaqtimni also bekor o'tkazmayman, – deydi poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi Zarina Jo'rayeva.

– Bo'sh vaqtlarimda rasm chizishni yoqtiraman. Turli xil ertak qahramonlarining rasmini mazza qilib chizaman. Bugun o'z ijod namunalarimni tahririyatga olib keldim, – deb qo'lidagi qog'ozlarni uzatdi Guli Komilova.



– Iqtidorli o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldirmaslik uchun maktabimizda «Zulfiyaxonim», «Ona tilim – jon-u dilim» to'garaklari tashkil etilgan. Har hafta ijodkor o'quvchilarning yozgan she'r, maqolalari bilan tanishib chiqaman. Bir oyda bir marta olgan bilimlarini charxlash uchun bellashuv uyushtiramiz. Bu tanlov o'quvchilarning ilm olishiga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Ayniqsa, 5-«B» sinf o'quvchilari Komila Nasrullayeva, Ruxshona Abdubborova, Guli Komilova singari iqtidorli o'quvchilar maktabimizning faxri. Ular darslarda ham faol qatnashishadi, – deydi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Jalilova.

Qizlar bilan miriqib suhbatlashdik. Kelgusida to'garak a'zolari o'rtasidagi bellashuvda g'olib bo'lgan maqola va she'rlarni «Tong yulduzi» gazetasida chop etishga kelishib oldik.

Nigora  
ABDUNAZAROVA



## KIMDA QANDAY TAKLIF BOR?

**Aziz o'quvchilar! Maktabingizda turli uchrashuvlar muntazam o'tkazib turiladi, shundaymi? Siz tadbirlarning qiziqarli, noan'anaviy tarzda tashkillashtirilishini istaysiz, albatta.**

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 183-umumta'lim maktabida tahsil olayotgan tengdoshlaringiz ana shunday uchrashuvning guvohi bo'lishdi. Respublika ma'naviyat va ma'rifati markazidan kelgan Abdihakim Jo'rayev o'quvchilarga yuzlanib:

– Qani, aziz bolajonlar, qanday taklif va muammolaringiz bor? Bugun sizning mulohazalaringiz bilan tanishish istagidamiz, – deganlarida, teng-

doshlaringiz biroq o'ylanib qolishdi. Shunda maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Hushnida Norqulova bu g'algi tadbir aynan shu maqsadda tashkillashtirilganini ta'kidladi. Shundan keyin o'quvchilar mehmonga birin-ketin savol bera boshlashdi. Iqtidorli qizlardan biri 10-sinf o'quvchisi Shohista Elchiyeva bugun ko'pchilik bolalar otalarining e'tiboriga, mehriq muhtoj ekanini ta'kidlab, barcha otalarni mehribon bo'lishga chaqirdi.

8-«B» sinfning faol o'quvchisi Elbek Hamroyev esa maktablarda «Zakovat» teleo'yiniga o'xshash o'quvchilar bilimini charxlovchi klublar tashkil etishni taklif etdi. Ijodkor qiz Gulorombegim G'ulomova esa darslarning

yanada qiziqarli o'tilishini istab, bu borada o'quvchilar o'zlarini dars o'tishlariga imkon so'radi. Bolalarning taklif va mulohazalarini maktab rahbari Ilmira Xojjalimova ham katta qiziqish bilan tingladi. So'ng ularga «Siz-chi, Vatani uchun nimalar qilmoqchisiz?» degan savol bilan yuzlandi. Axir qars ikki qo'ldan chiqishi kerak-da, to'g'rimi? Shunda 9-«A» sinf o'quvchisi, Yoshlar ittifoqining maktab sardori Abdulloh Rajabov quyidagicha javob berdi:

– Men aniq fanlarga qiziqaman. Maktabdagi matematika to'garagiga qatnayman. Kelajakda radio-texnika yo'nalishida yangi innovatsion g'oyalarni bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shmoqchiman.

**Aziz o'quvchilar, agar sizning maktabingizda ham shunday uchrashuv tashkil etilishini istasangiz, bizga fikrlaringizni yozib yuboring.**

Sayyora  
QODIROVA



# OLIMPIADA – BILIMLAR FAROZUSI!

Toshkent viloyati,  
Ohangaron tumanidagi umumta'lim maktablarining 9-10-sinf o'quvchilari fanlar bo'yicha Respublika Olimpiadasi-ning 1-bosqichida faol ishtirok etishgandi.

Joriy yilning 9-10- yanvar kunlari 12-umumta'lim maktabida o'quvchilar mazkur Olim-

piadaning 2-bosqichida o'zaro bellashdi. Bellashuvlar yakuniga ko'ra, 9-sinf o'quvchilaridan 23 nafar, 10-sinf o'quvchilaridan 14 nafari g'olib bo'lishib, tanlovning viloyat bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritishdi. 11-, 12-, 15-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Nozima Nazirova, Durdona Odiljonova, Fotima Komilova hamda Gulnora Turdalievalar tumanning eng bilimdon o'quvchilari ekanliklarini namoyish etishdi.



## Lesson 5

### THE ENGLISH LESSON (Ingliz tili darsi)

Guess the end

Salim was sitting in his English class. It was a hot afternoon and he was feeling sleepy. It was a grammar lesson and Salim was also bored. He hated grammar. He wanted to leave school and work. He wanted to be a gardener. Salim loved flowers and trees. He looked out of the window. He looked at the trees and flowers. Then, he started day-dreaming. After ten minutes the teacher stopped talking. She asked the students to do a grammar exercises in their books. The students took out their exercise books, books and pens so, they started writing. The teacher looked at Salim. She saw that he wasn't



writing and she said, «Why aren't you writing, Salim?» Salim thought for a moment and replied, «I ain't got a pen». The teacher looked at Salim and said "you ain't got a pen?" Salim did not understand the English teacher so he said, «Teacher...».

A) «Sorry teacher, I have dream about my garden, but I understand my mistake». The teacher looked at her student with satisfaction and continued her lesson.

B) «Sorry, teacher I lost my pen. Can I use my pencil or can I borrow my friend's pen?».

C) «Sorry teacher, my grammar is bad but I try improving it. That is why, I am doubt to my answer».

### Ask the questions


1. What do you want to do at your English lesson?
2. Would you like to have more or less homework after class?
3. Describe your English classroom.
4. Would you like to speak or more read in class?



Your teacher  
Ma'mura G'ULOMOVA

### FIND THE MISTAKES (Xatolarni to'g'rilang)

1. Can your describe English classroom?  
– Can you describe your English classroom
2. I like reads detective books –
3. Opening your notebook –
4. I see two bird –
5. It was an dark night –
6. Some peoples like reading books –
7. Dont waste water! –
8. She have a long work day –
9. Swimming after works a very relaxing –
10. I am an angry about his missing –



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

## Fingers game

Children, let's find synonyms from the box



Fancy,  
cherish, admire,  
chuckled, howled,  
marvel, strolled,  
favour.

Dinora  
ABDULLAJONOVA



Oygul  
UBAYDULLA  
qizi


**QUYONCHA**

Menman oppoq quyoncha,  
Yaxshi ko'rganim uycha.  
Berkinaman tulkidan,  
Asralgum men kulgidan.  
Sira demangiz qo'rqoq,  
Tulki, bo'rilar biroq.  
Meni yaxshi ko'rishar,  
Chopsam, quvnaq quvishar.  
Rostdir mening so'zlarim,  
Mayin boqar ko'zlarim.  
Oppoqqinam deyingiz,  
Erkalangiz, suyingiz.



**DELFIN**

Men yoqimtoy delfinman,  
Odamlarni sevaman.  
Bolajonlar, bilingiz,  
Do'st bo'lamiz, kelingiz.  
Okeanda o'ynaymiz,  
Suzamiz, xo'p quvnamiz.  
Cho'milamiz dengizda,  
Ko'p ishlar bo'lar bizda.  
Suv ostini bilaman,  
Sizga xizmat qilaman.  
Cho'chimang hech jussamdan,  
Xursand bo'lasiz mendan.



**KENGURU**

Old oyog'im kaltadir,  
Qornimdagi xaltamdir.  
Ichiga solib bolam,  
Kengliklarda yelaman.  
Avstraliya uyim,  
Ikki metrdir bo'yim.  
Butazorda yashayman,  
Barg, ko'katni xushlayman.  
Zo'r eshtar qulog'im,  
Uzun orqa oyog'im.  
Kenguruman, bilingiz,  
Sakrab yurar deyingiz.



**«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN**

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Yaqinda qiziq bo'ldi desang, bolajonim. Mehmondorchilikdan chiqib uyga kelayotsam, mahallamizda ochilgan do'koncha oldida bir bolakay chirillab yig'lab turibdi. Undan sal katta bolalar uni yupatmoqchi bo'lib, bir nimalarni qo'lga tutqazishardi. U bo'lsa battar avjga chiqadi. Nimadandir qattiq alamzada. Borib, «Nima bo'ldi, bolajonim?» deb shundoq boshini silashimni bilaman, u ko'zi to'la yosh bilan jovdirab menga qaradi-da, «Achalomlayku» deb yana yig'isini kelgan joyidan davom ettiraverdi. Yig'lab turib ham salomni esidan chiqarmagan bu bolakayga mehrim jo'shib ketdi. Dast ko'tarib, bag'rimga bosdim. U bo'lsa menga arz qilgandek qo'lchalari bilan do'konni ko'rsatdi. Hoynahoy, onasi o'sha yerda bo'lsa kerak, deb bolani qo'lmdan qo'ymay, ichkari kirdim. U yerda do'konchidan boshqa hech kim yo'q edi.

Bilsam, voqea bunday bo'lgan. Bolakay akalarga ergashib do'konga kirgan. Akalari pulini to'lab bodroq olishgan. Shunda u ham bitta bodroqni qutichasi bilan olvoganda, do'kondan chiqib keta boshlagan.



**HADYA**

Shunda do'konchi puli to'lanmagan bodroqni qo'lidan olib qo'yan. To'g'ri qilgan. Kichkintoylarning oldi-sotdi bilan bog'liq hangomalari mana shunaqa kulgili voqealardan boshla-

nadi. Bu dunyoda egasiz narsaning o'zi yo'q-da. Men bodroqning pulini to'ladi-da, uni bolajonga hadya qildim. «Qo'yavering, hozir onasi chiqib olib beradi, men bo'lajak xaridorlarimni shunaqa yig'latib tarbiyalayman», dedi do'konchi kulib. «Bu bolam yig'lab turib ham menga salom berdi, salomni esidan chiqarmadi. Bodroq uning chiroyli odobi uchun hadya, salomni o'rgatgan ota-onasiga ming rahmat», dedim.

Ko'rdingmi, nabiraginam, salom qanchalar ulug' kalom. Axir etaklarda ham devlar aytadi-ku: «Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim», deb. Salom har qanaqasiga ham o'zining munosib mukofotini oladi. Chunki salom Ollohning ismidir. Hayotda kattaga ham, kichikka ham birinchi bo'lib salom berishga shoshil, mukofot senda ketadi...

(Davomi bor)

Sunbulxonim Rustam-boyeva Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 23-umumta'lim maktabining 4-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U adabiyotni, ijodni sevadi. Shu bois, bo'sh vaqtlarida she'rlar mashq qilib turadi. Tengdoshingiz yozgan she'rlarda bolalarcha soddalik va samimiylilik shundoqqina ufurib turadi.

**BOLALARGA XOS SODDA SATRLAR**

Jumladan, u «Navro'z keldi» nomli she'rida:  
«Ko'm-ko'k bo'lib dalalar,  
Salom berar lolalar»,  
deya tabiatga bolalarcha ta'rif beradi. «Kuz keldi» nomli she'rida esa:  
Negadir xafa shamol,  
Barglarni uzdi darhol.  
Bir ajoyib, ajib hol,  
Kuz keldi-yu, kuz keldi...  
deya ushbu go'zal fasl tarovatini o'ziga xos tarzda ifodalaydi.  
Sunbulxonimning she'riy tarzda yozgan topishmoqlari

ham diqqatga sazovor.  
«Qat-qat ochilgan beshak,  
Hididan sog'lom yurak,  
Rangi to'q qizil axir,  
Bilasanmi, Muborakl (Atirgul)  
Agar Sunbulxonim o'z ustida ko'proq ishlasa, us-tozlar she'rlarini yod olsa, biz ishonamiz u kelajakda, albatta, el sevgan ijodkorlar safidan joy oladi.

Munavvara YUSUPOVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

**OV QILISHNI O'RGATDIM**

Mushugim bor ajoyib,  
Quloqlari g'aroyib.  
Ismin qo'ydim Pahmoqyov,  
Sichqon yemas tanbalvoy.

Sutni juda hush ko'rar,  
O'z qadrini biladi.  
Unga agar non bersam,  
Indamasdan turadi.

Sichqon rasmin chizib,  
Uni rosa o'ynatdim.  
Shunday qilib mushukka,  
Ov qilishni o'rgatdim.

Shermurodbek RO'ZIYEV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Mirishkor tumanidagi  
13-umumta'lim maktabining  
5-«A» sinf o'quvchisi

**AHILLIKNING DOVRUG'I**

(Ertak)



Qadimda bir o'rmonda jonivorlar maktabi bo'lgan ekan. Unda quyosh, tulki, ayiq, mitti koala, maymun, pashsha, ninachi, zarg'aldoq, to'ti, burgut va lochin kabi qush va hayvonlar tahsil olarkan. Ammo ular o'zaro ahil emas

ekan. Bir kuni o'qituvchi Boyo'g'li ajoyib hiyla o'ylab, sinfning ahilligini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Hammaga bir topshiriq berib, uning yechimini topishni so'rabdi. Ammo masalani bajarishda sinfdagilar hech ahil bo'la olmabdi. Biri u desa, boshqasi bu dermish. Hech kim bir-birini eshitishtni xohlamas ekan. Boyo'g'li nihoyat shunday debdi:  
– Siz bu bellashuvda g'olib bo'lishingiz mumkin edi. Lekin bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilmaganingiz uchun birlashmay to'zib ketdingiz, topshiriqni esa bajara olmadingiz. Bundan keyin sira tortishmanglar. Zero, ko'pning fikri jam bo'lsa, juda katta kuch hosil bo'ladi.

Ustozning bu gapidan parranda va darrandalar uyaliq qolishibdi.

Oradan yillar o'tib, o'rmondagi jonivorlarning ahilligi hamma yoqqa ovoza bo'libdi.

Navro'za TURSUNOVA,  
Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 6-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

# VATAN MUQADDAS

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida «Vatanparvarlik» oyligiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 15-Mehribonlik uyida tuman mudofaa ishlari bo'limi vakillari, O'rta Chirchiq tumanidagi harbiy qism harbiylari, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishti-

rokida «Vatan muhofazasi – muqaddas burchimiz» mavzusida davra suhbatini tashkillashtirildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar salohiyati va harbiylarimizning professional

malakasi to'g'risida so'z bordi. Katta leytenant Sirojiddin Rajabov so'zga chiqib, yosh avlodni mardlik va matonat ruhida tarbiyalashda ma'naviy ibrat bo'lish harbiylarning burchi ekanligi haqida aytib o'tdi.

Sog'lik undan bahramand kishiga ham, boshqalar uchun ham buyuk ne'matdir.

Shuningdek, tadbirda davlatimizning har bir o'g'loni Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna, Amir Temur, Najmiddin Kubro kabi buyuk ajdodlarimizga munosib mard, jasur farzandlar bo'lishlari lozimligi ta'kidlandi. Buning uchun yosh avlodni diniy aqidaparastlik, jinoyatchilik, kashandalik, ichkilikbozlik

kabi salbiy illatlar ta'siriga tushib qolishdan saqlash, ularning a'lo o'qishi, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun kerakli sharoitlarni yaratish lozimligi tilga o'lingi.

Harbiylar shu sohaga qiziqqan tarbiyalanuvchilarning savollariga javoblar berishdi. Videolavhalar namoyishi barchaga manzur bo'ldi.

## BIZ BAXTIYOR AVLODMIZ



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim maktabining Lyubov Nikolayevna Lyashenko rahbarlik qilayotgan 2-«E» sinf o'quvchilari o'zlari tayyorlagan badiiy chiqishlari bilan barchani xushnud etdi.

Jamolidin ABDULLAYEV/gamisuratiir

Joriy yil futbolchilarimiz uchun juda omadli boshlandi. Tajribali murabbiyimiz Ravshan Haydarov boshchiligidagi O'zbekiston olimpiya terma jamoasining Xitoyda bo'lib o'tayotgan Osiyo chempionatidagi g'alabali o'yinlari ushbu so'zlarimiz isboti, albatta.

## BARAKALLA, YIGITLAR!



O'tgan hafta Kunshan shahridagi «Kunshan Stadium»da o'tkazilgan yarim final uchrashuvida O'zbekiston va Janubiy Koreya yoshlar terma jamoalari maydonda saf tortdi. Aytish kerakki, bahs yosh charmtop ustalarimizning to'liq ustunligida o'tdi. O'yinning 33-daqiqasida iste'dodli futbolchimiz Zabihillo O'rinboev hisobni ochdi. Ikkinchi bo'limning 58-daqiqasida Xvang Xyun-Su jarimadan oshirilgan to'pni boshi bilan darvozaga joylab qo'ydi va hisob tenglashdi.

Bahsning asosiy vaqtida hisob o'zgarmadi. Qo'shimcha taymda g'alabaga bor

kuch-g'ayratlari bilan harakat qilgan futbolchilarimiz raqib darvozasini 3 marotaba ishg'ol qildi. Gollarga Azizjon G'aniyev, Jasurbek Yaxshiboyev hamda Akromjon Komilov mualliflik qildi. Shu tariqa O'zbekiston va Janubiy Koreya yoshlar terma jamoasi o'rtasidagi o'yin 4:1 hisobida yakunlandi.

**P/S.** 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan final uchrashuvida yosh charmtop ustalarimiz Vyetnam termasiga qarshi maydonga tushdi.

Sa'dullo TURSINOV



## MAKTABIMIZDAN CHEMPION CHIQDI

O'quvchilarning barchasi sinf doskasining yuqorisiga ilib qo'yilgan kumush medalga havas bilan qarashardi. Bu 8-sinf o'quvchisi Og'abek Allanzarovning navbatdagi yutug'ining mevasi.



Og'abek kichikligidan sportning taekwando ITF turi bilan shug'ullanadi. Kamtarin, kamgap, ko'zlarida g'ayrat va shijoat chaqnaq turuvchi bu o'quvchimiz har yili turli musobaqalarda qatnashib, sovrindor bo'lib kelmoqda. Shu yili u Qirg'izistonda o'tkazilgan Osiyo chempionatida o'smirlar o'rtasida 1-o'rinni qo'lga kiritgan edi. Oradan ko'p o'tmay, Belarusda bo'lib o'tgan jahon chempionatida 43 davlatdan kelgan tengdoshlari orasida kumush medal sohibiga aylandi. Uning bu galgi yutug'i ta'lim maskanimizda katta tantana qilinadi. Maktabimiz kutubxonachisi Farida Qo'ziyeva kechani mahorat bilan boshqargan bo'lsa, direktor o'rinbosari Dilbar Qilicheva esa barcha o'quvchilarni Vatanimizning nomini dunyoga tanita olgan Og'abekdan o'rnak olishga chaqirdi.

Tadbirda qahramonimiz so'zlab bergan sahar taassurotlari va chempionlik tafsilotlari barchani to'liqlantirib yubordi. Biz esa unga hamisha omad yor bo'lishini tiladik.

Qimmat BOBOYEVA, Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 24-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



## BOLALIKNING


Ularning mittigina yuragi bizning butun olamimizni bor bo'y-basti bilan o'ziga sig'dira olishini tasavvur ham qila olmaymiz.

Shu kunlarda «O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi muharrirlari tomonidan yosh kitobxon-

lar uchun badiiy asarlar nashrga tayyorlanib, chop etilmoqda. Bu sa'y-harakatlardan ko'zlangan asosiy maqsad, zukko o'quvchilar va ularning ota-onalari qo'lga mazmunga boy asarlarni yetkazib berishdan iborat.

## RANGIN JILVALARI

**Bolalar beg'ubor bo'lishadi. Ularning oddiy va soddagina savollarida, kichikkina xulosalarida samimiyatni his qilasz. Bolalar yolg'ondan kulmaydi, yolg'ondan yig'lamaydi. Aytib bergan ertaklaringizga ham chippa-chin ishonadilar.**




O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning «Polosonlik palaponlar» nomli kitobi shular jumlasidandir. Muallif o'zbek xalq folkloridan o'rin olgan bolalar aytimlari, hali-hanuz bolakaylar tilida yangrab kelayotgan laparlarning bir qanchasini to'plab, ularga o'ziga xos jilo berib, o'quvchilarga tuhfa etgan.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Abdurahmon Akbarning «Cho'ntakdagi daraxt» kitobi ham sizga manzur bo'lishi, shubhasiz. Ijodkor o'zining qisqa umri davomida juda ajoyib she'rlar yozdi, tarjimalar qildi. Uning she'rlari mehrga, samimiylig va tabiiylikka boy, ularda hech bir zo'rakilik, soxtalik yo'q. Ushbu to'plamdan shoirning eng sara ijod namunalari o'rin olgan.



Bolalarning sevimli shoiri Turanboy Adashboyevning «Osmon ko'kmi, zangori?» nomli to'plami ham bolalarning sevimli kitoblari qatoridan joy olishi, tabiiy. Unda shoirning «Fufayka», «Burni qonab», «Dilmurodning vaqti yo'q» kabi mashhur she'rlari va bolalarga mo'ljallangan ajoyib ertaklari o'rin olgan. Shoirning she'rlari yorqin, so'zlari mazmunli, tezda yod bo'lishi bois, allaqachon bolalar ko'nglidan joy olgan.



Shahzod Shomansurovning rang-barang olam go'zalligi va uni his qila olish haqidagi «Fotoolam» ilmiy-ommabop kitobi ham zukko kitobxonlarga manzur bo'ladii, deb o'ylaymiz. Ushbu kitob nafaqat o'quvchilar, balki turli yoshdagi fotosurat ishqibozlari uchun ham foydalidir. Chunki bu kitob orqali fotografiya tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, janrlar va go'zallik tamoyillari, fotoapparatlarning turlari, ularning qulaylik va afzallik tomonlari bilan tanishasiz.


Alisher FAYZULLAYEV

## FOYDALI MASLAHATLAR

**Aziz qizlarjon! Azaldan ma'lumki, qiz bola nafaqat pazanda, ozoda, balki har narsaning epidan chiqa bilishi kerak. Shu maqsadda siz uchun foydali maslahatlar ruknini tashkil qildik.**

1. Isitiladigan palovning guruchi ezilib ketmasligi uchun qozonga o'zgina qora choy qo'shib yuboring.

2. Sabzavotlarni bug'da dimlab pishirib olsangiz, undagi darmondorilar va kerakli moddalar saqlanib qoladi.



3. Olma, behi, limon va apelsin kabi mevalarni dasturxonga tortishdan avval qaynoq suvga chayib olsangiz, xushbo'y hidi yanada ortadi.

4. Tukli sochiqni yuvib, chayib bo'lgandan keyin biroz tuz qo'shilgan suvga solib qo'ying, yaxshilab siqib, so'ng yoysangiz, tuklari mayin bo'lib qoladi.

## LAVASH XAMIRIDAN 2 XIL TAOM

**Kerakli masalliqlar:** 2 ta tayyor lavash xamiri, 500 gramm lahm tovuq yoki mol go'shti, 2 donadan pomidor, bodring, yarim bog' shivit, 150 gramm mayonez, ta'bga qarab tuz, zira, qovurish uchun 250 gramm sariyog'.

**Tayyorlanishi:** 1. Ish avvalida tovada yog'ni qizdirib, go'shtni parrak qilib qovurib oling va tuz, zira qo'shib, biroz dimlang. Tayyor lavash xamirini olib, bir xil shaklda bo'ling. So'ng xamirga qovurilgan go'sht, pomidor, bodring va ko'katni yirikroq bo'laklab soling va qattiq qilib o'rang. So'ngra, tovaga sariyog' solib, ikki tomonini qizartirib oling. Tayyor taomni dasturxonga tortishdan oldin ko'katlar bilan bezating.

2. 1 dona lavashni 4 ga bo'ling. Har bir bo'lagiga brinza, yong'oq, ko'kat solib o'rang va tovaga yog' solib, ikki tarafini qizartirib oling.



Pazanda qizga!




**Yoqimli ishtahal!**



Nargiza ABDULLAYEVA

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



**Quyidagi boshqotirma - so'z o'yini logogrif deyiladi. Biror so'zdan harflar olib tashlash yoki yangi harflar qo'shish yo'li mustaqil so'zlar yaratish demakdir. Boshqotirmaning zinama-zina hal etsangiz, bir butun so'z paydo bo'ladi. Diagonaliga ham o'qisangiz, bir xilda o'qiladi.**

1. Alfavitdagi harf.
2. Egey dengizidagi orol.
3. Temza daryosi irmog'i.
4. Italiyadagi futbol jamoasi.
5. Ruminiyadagi shahar.
6. Dramatik musiqa asari.

Tuzuvchi:  
Anvar MIRZAZODA,  
Zangiota tumani

8

29-yanvar 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Laziz TANGRIYEV,  
Murtazo S'ETONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Nodira NAZAROVA  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
Fotomuxbir  
Zubayda  
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etiladi.  
Manziliimiz va bosmaxona  
manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi - 70474  
Buyurtma - V 981

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilina-  
di, mualliflarga qaytaril-  
maydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushan-  
ba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel. /faks:  
(99871) 244-63-08